

TA'LIM AL-MUTA'ALLIM ASARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Oriental universiteti Tarix fakulteti

TO'RAYEV DAVRONBEK REYIMBERGANOVICH

Annotatsiya: Mazkur maqolada Burhoniddin Zarnujiyning “Ta’lim al-muta’allim tariq at-ta’allum” asarida ilgari surilgan ilm olish odobi, ustoz-shogird munosabatlari, ta’lim jarayonida niyat, intizom, sabr, vaqtni qadrlash va axloqiy mas’uliyat kabi masalalarning bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda bayon etilgan pedagogik qarashlar zamonaviy ta’lim tizimida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Xususan, bilim olishni ma’naviy kamolot bilan bog‘lash, o‘quvchida mas’uliyat hissini shakllantirish, ustozga hurmat va ilmga ixlos bilan yondashish kabi g‘oyalar bugungi yosh avlod tarbiyasida muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada “Ta’lim al-muta’allim” asarining tarixiy-ma’rifiy mazmuni hamda uning zamonaviy pedagogika bilan uyg‘un jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Burhoniddin Zarnujiy, “Ta’lim al-muta’allim”, ilm olish odobi, ustoz-shogird an’anasi, ma’naviy tarbiya, pedagogik meros, zamonaviy ta’lim, axloqiy kamolot.

“Ta’lim al-mutaallim”da mazkur masalaga quyidagi rivoyatlarni keltirilgan: “Hazrati Ali (r.a.)¹: “Hech kim maslahatdan halok bo‘lmagan”, deganlar. Odamlar uch xil toifaga bo‘linishi aytilgan: komil inson, yarim inson va hech kim. Komil inson – haqiqatni topuvchi fikri bor kimsa va (boz ustiga) aqlli kishilar bilan maslahat ham qiladi. Yarim insonda to‘g‘ri fikr bor, lekin maslahat qilmaydi yoki maslahat qiladi-yu, o‘zining to‘g‘ri fikri yo‘q. Endi, maslahat ham qilmaydigan,

¹ Ali ibn Abu Tolib (vaf. 40/661) mashhur sahobalardan biri. “Chahoryor”lar deb ataladigan dastlabki to‘rt xalifadan to‘rtinchisi. Payg‘ambar (s.a.v.)ning Fotima (r.a.) degan qizlariga uylangan.

o'zining bir fikri ham yo'q inson hech kimdir. Ja'far as-Sodiq (r.h.)² Sufyon as-Savriy (r.h.)³ga: "Ishlaring to'g'risida Alloh taolodan qo'rqadigan kimsalar bilan maslahat qil!", deganlar"⁴. "Maslahat – zardan qimmat" degan mashhur maqolning⁵ zahirida amaliy haqiqat borligi ayon bo'ladi.

Har bir ishda zaxmat bo'lgani kabi ilm o'rganishda ham shu holat bo'lishi tabiiy. Burhoniddin az-Zarnujiy bu borada shunday fikrni ilgari surgan: "Ilm talabi ishlarning eng oliysi va eng qiyinidir. Shunday ekan, u borada maslahat qilish muhimroq va vojibroqdir"⁶. Ushbu fikrda masalaga yechimni ham taklif qilingan. Ya'ni, maslahat qilish taklif qilinyapti. Shuningdek, u qo'shimcha tarzda shunday degan: "Shijoat nima?" deb so'ralganda, "Shijoat – bir lahza sabr!", deb javob berilgan. Demak, talaba uchun keragi shuki, matonat ko'rsatsin, bir ustozga mustahkam sabr qilsin. Biror kitobga ham, toki uni (mutolaa qilishda, undan dars olishda) chala tark qilmasin. Biror fanga ham, toki birinchisini mustahkam qilishdan avval boshqa fan bilan mashg'ul bo'lib ketmasin. Biror shaharga ham, toki zaruratsiz (ilm istash va boshqa bahonada) boshqa shaharga o'tib ketmasin. Chunki, mana shularning hammasi (asosiy) ishlarni bo'lib yuboradi. Qalbni (asosiy ishdan boshqasiga) mashg'ul va vaqtlarni zoye' qiladi, muallimga ozor ham beradi. Talaba nafsi-havosi hohlagan narsalardan sabr etmog'i (to'xtalmog'i) zarur bo'ladi"⁷. Bundan anglash mumkinki, mashaqqatning asosiy yechimi bu – matonatdir. Vaholanki, bu umumiy tavsiya bo'lsa-da, voqelik shuni taqozo qiladi. Olim bunga qo'shimcha tarzda shunday degan: "Har xil balo va mehnatu mashaqqatlarga talaba sabr qiladi. "Maqsadlar xazinasini – mehnatlar ko'prigi

² Abu Abdulloh Ja'far as-Sodiq ibn Muhammad al-Boqir ibn Ali Zaynulobidin ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib al-Hoshimiy al-Qurashiy (80-148/699-765) tobe'inlarning ulug'laridan biri, o'n ikki nafar imomning oltinchisi. U zot olim, mufassir va faqih bo'lib, Imomi A'zam Abu Hanifa (r.h.) undan saboq va duo olganlar.

³ Abu Abdulloh Sufyon ibn Sa'id as-Savriy al-Ko'fiy (97-161/716-778) taniqli muhaddislardan biri, faqih olim, Imomi A'zam Abu Hanifa (r.h.)ning zamondoshi va safdoshi. Juda ko'p hadis yod bilgani uchun "Hadis ilmida mo'aminlar amiri" laqabiga ega bo'lgan muhaddislardan hisoblanadi. Uning "al-Jome' al-kabir" va "al-Jome' as-sag'ir" kabi hadis to'plamlari bo'lgan.

⁴ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 16.

⁵ Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharh, 2005. – B. 314.

⁶ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 16.

⁷ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 17.



ustidadir!”, deyilgan”⁸. Demak, ilm olishda sodir bo’ladigan mashaqqatni matonat va jiddu-jahd bilangina yengish mumkin ekan.

Ilmdagi mashaqqatlardan biri bu – talabalarning tahsil olish jarayonidagi moddiy ta’minoti sanaladi. Bu bugungi kunda ham dolzarb muammo bo’lib, rivojlangan davlatlarda ta’lim xarajatlari uning bosqichlariga bog’liq holda qolpalash yo’lga qo’yilgan. Mutafakkirning bu boradagi gapidan, nafaqat u yashagan davrda, balki undan oldingi asrlarda ham ushbu masalaga e’tibor qaratilgani ayon bo’ladi. Xususan, olim asarida bu borada quyidagicha fikr bildirgan: “Avvalgi zamonlarda (yoshlar) hunar o’rganardilar, keyin ilm tahsil qilardilar, odamlarning boyliklaridan tama qilmasdilar”⁹. Zero, ilm-ma’rifatda katta yutuqlarga erishgan va darajalarga yetishgan olimlarning aksarida o’z kasbu kori bo’lgani manbalarda keltirilgan. Jumladan, asarda quyidagicha rivoyat keltirilgan: “Abu Hafsi kabir¹⁰ (r.h.) ham kasb qilardilar va ilmlarini takrorlar edilar”¹¹. Burhoniddin az-Zarnujiy bundan keyin ikkinchi bir muammoga to’xtaladi. Ya’ni, ilm o’rganuvchi o’zidan boshqalarga ham moddiy jihatdan ta’minotiga mas’ul bo’lishdir. Olim shunday degan: “Agar tolibi ilm uchun oilasi va boshqalarning (ya’ni, qarindoshlarining) nafaqasi uchun kasb qilishdan o’zga chorasi bo’lmasa, demak, kasb qilsin va (ilmini) takror ham qilsin, (aslo) dangasalik qilmasin. Sog’lom aqlli va tansihatli kimsa uchun ilm olish va fiqh o’rganishni tark etishda uzr yo’q”¹². Demak, olimning ushbu gapi har qanday qiyinchilikda ham tahsil olish va ta’limni davom ettish lozimligiga dalolat qiladi.

Islom dinida inson turmush tarzini yaxshilikda o’tkazishga buyurilgan. Xususan, shaxsning boshqalar bilan munosabatida ham umumiy me’yorlar

⁸ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta’lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 17.

⁹ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta’lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 42.

¹⁰ Abu Hafs Ahmad ibn Hafs al-kabir al-Buxoriy (vaf. 218/833) taniqli hanafiy faqih. Imomi A’zam Abu Hanifa (r.h.)ning shogirdi Muhammad ash-Shayboniy (r.h.)ning shogirdi bo’lgan. U hanafiylik mazhabining Movarounnahrda taratgan zotlardan biri hisoblanadi. Muhaddislar sultoni Imom Buxoriy (r.h.)ning yoshlikdagi ustozlaridan biridir.

¹¹ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta’lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 39.

¹² Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta’lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 39.



belgilangan. Shulardan biri bu – hech kim bilan nizolashmaslikdir. Burhoniddin az-Zarnujiy ushbu masalaga ham alohida to'xtalib quyidagicha degan: “Hech kim bilan nizo va dushmanlikka bormaslik lozim. Chunki, u vaqtlarni zoye' qiladi”¹³. Zero, olimning ushbu fikri islom diniga oid manbalarda ham qayd etilgan. Shuning barobarida, didaktikaga doir birlamchi manabalarda ham zikr qilinhan.

Olim insonlarni doimo ta'lim olishga, ilm-ma'rifatli bo'lishga chaqirgan. Jumladan, u bunga “Tahsil vaqti beshikdan to qabrgacha, deyilgan” degan gapni hujjat sifatida keltirgan. Bu gap asarda majhul nisbatda keltirilganiga sabab shuki, uning hikmatli so'zligi yoki hadisligi borasidagi munozaradir. Bunga qo'shimcha tarzda, olim shunday rivoyat keltiradi: “Hasan ibn Ziyod (r.h.) fiqh o'rganish tahsiliga kirishganida sakson yashar holidi edi. Qirq yil to'shakda uxlamadilar. Shundan so'ng qirq yil fatvo berdilar”¹⁴. Zero, ushbu rivoyat voqelik bo'lib, amaliyotda ham harakat qilinsa, imkoni bor ishdur. Shuning uchun ham, yuqoridagi dalil dastlab keltirilgan.

Xulosa qilib shuni alohida aytish lozimki, Burhoniddin az-Zarnujiy “Ta'lim al-mutaallim” asaridagi ta'lim va tahsilga oid shaxsiy qarashlari sohaning taniqli va tajribali vakillaridan keltirgan dalillari amaliy jihatdan dolzarb muammolarni bartaraf etishda katta ilmiy ahamiyatga egadir. Zero, “Ta'lim al-mutaallim”dagi jamiyatda ilm va ilm ahlining qadrini oshirish, xotin-qizlarning ta'limini qo'llab-quvvatlash, o'rganishda birlamchi manbalarga e'tibor qaratish, talabalarning tahsil olish jarayonidagi moddiy ta'minoti va boshqalar bilan munosabati kabi masalalar tahlili asarning zamonaviy qiymati yuksakligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010.

¹³ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 48.

¹⁴ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 47.



2. Muahmmad Ali. Amir Temur solnomasi. – T.: Alisher Navoi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.

3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharh, 2005.

4. Ahmad Hayriy. “al-Imom al-Kevseriy”

